

UDK:637,62.3

**JUN TARKIBIDA UCHRAYDIGAN AYRIM NUQSONLAR  
(CHIGALLASHGAN VA KIGIZLANGAN JUNLAR)***Yangiboyev Abdimalik Eshmurodovich**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali q.x.f.f.d., (PhD) dotsenti**Aminova Shoiri Furqat qizi**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali assistenti (stajyor-tatqiqotchi)*

**Аннотация:** Qo‘y junlarining o‘shir sur‘ati va tolalar sifati tashqi muhit, biologik va fiziologik omillar ta‘sirida shakllanadi. Hayvonlar teri qoplamida o‘suvcchi jun tolalarining yana bir xavfli kamchiliklariga, jun tolalarining o‘zaro chigallashib, kigizlanib ketishi kiradi. Jun tolasining texnik xususiyatlariga bevosita bog‘liq bo‘lgan jun mahsulotlarining texnologik jihatdan yaroqliligini pasaytiradigan va yomonlashtiradigan nuqsonlar jun illatlari deb ataladi.

**Калит so‘zlar:** Jun, tola, kigiz, semizlik darajasi, teri qoplami, chigal junlar, muhit omilari, juning tarkibi.

**Аннотация:** Скорость роста и качество волокна овечьей шерсти формируется под влиянием внешней среды, биологических и физиологических факторов. Еще одним опасным недостатком волокон шерсти животных, которые растут на коже, является то, что волокна шерсти тускнеют и спутываются. Дефекты, снижающие и ухудшающие технологическую пригодность шерстяных изделий, которые непосредственно связаны с техническими свойствами шерстяного волокна, называются пороками шерсти.

**Ключевые слова:** Шерсть, волокно, войлок, упитанность, кожный покров, спутанная шерсть, факторы внешней среды, состав шерсти.

**Annotation:** The growth rate and quality of sheep wool fiber are formed under the influence of the external environment, biological and physiological factors. Another dangerous disadvantage of animal wool fibers that grow on the skin is that the wool fibers become dull and tangled. Defects that reduce and worsen the technological suitability of wool products, which are directly related to the technical properties of wool fiber, are called wool defects.

**Keywords:** Wool, fiber, felt, fatness level, skin coat, tangled wool, environmental factors, wool composition.

**Kirish:** Jun tolasining texnik xususiyatlariga bevosita bog‘liq bo‘lgan jun mahsulotlarining texnologik jihatdan yaroqliligini pasaytiradigan va yomonlashtiradigan nuqsonlar jun illatlari deb ataladi.

Tulash jarayonida qishloq xo‘jalik hayvonlari jun tolalarining ko‘p qismi qisqa vaqt ichida tola folekulasidan ajralib to‘kilishi kuzatiladi. Junning tarkibiy qismi hisoblangan jun tolimlari ostki qismining o‘zaro bog‘lanib qolishi evaziga, turli o‘lchamli kigizlanishlar yuzaga keladi. Junning kigizlanish holatining oldini olish maqsadida, boqilayotgan qo‘ylarning uzoq vaqt bir joyda yotqizmaslik va jun qirqimi mavsumini zootexnik talablarga mos ravishda o‘z vaqtida amalga oshirish talab etiladi.

Issiq iqlim sharoitida juni qirqilmagan qo‘ylarda ter ajralish jarayoni kuchayadi. Qo‘ylar quyoshning tik tushadigan nurlaridan saqlanish uchun bir-biriga tig‘iz, g‘uj bo‘lib olib, o‘zlarini himoyalaydilar. Chigallashgan junlarga quyidagicha ta‘rif berishgan: chigal jun deb tolalari bir-biriga zichlashib qolgan junlarga aytiladi. Chigal junlar yaxlit junning tolimlari bir-biri bilan shunchalik chalkashib, zichlashib qoladiki, buning natijasida junning pastki qirqilgan qismi namatga o‘xshash bo‘lib qoladi.

Bunday zichlashib qolgan junlarni yuvib tozalash juda qiyin kechadi, mashinalarda ishlov berilganda esa tolalarning ma‘lum bir qismi uzilib, kalta jun tolalari chiqindisiga aylanadi. (1-jadvalda) kigizlangan jun chiqimiga muhit omillarining ta‘sirini o‘rganish natijalari keltirilgan.

### 1-jadval.

#### Yaylov, iqlim sharoitining jun sifatiga ta‘siri

Suruvning tartib raqami	Yillar bo‘yicha	Qo‘ylar soni, bosh	Holati bo‘yicha			
			Me‘yorli jun		Kigizlangan jun	
			soni	%	soni	%
1-suruv	2013	390	370	94,9	20	5,1
	2014	376	363	96,5	13	3,5
1-suruv	2013	476	457	96,0	19	4,0
	2014	451	435	96,5	16	3,5

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2013-2014 yillarda Jizzax viloyati Forish tumanida M.Orolov shirkat xo‘jaligida olib borilgan kuzatishlar natijalariga ko‘ra, 2013 yilda otarlardagi qo‘ylar junining kigizlanishi 2014 yilga nisbatan ko‘proq kuzatilgan. Buni shunday izohlash mumkinki, 2013 yil qish mavsumi keskin o‘zgaruvchan ob-havo sharoitlarida o‘tganligi bois, tajriba o‘tkazilgan suruv qo‘ylari o‘rtacha 15-20 kun davomida kechasi usti berk qo‘tonlarda qamalgan. Bu esa qo‘y junning kigizlanishiga sabab bo‘lgan. Qo‘ylarning oziqlanishi, semizlik darajasi ham jun qoplamasining holatiga ta‘sir etadi.

Qo‘ylarning semizlik darajasi jun qoplami kigizlanishiga ma‘lum darajada ta‘sir etganligini ko‘rsatadi, ya‘ni qo‘ylar semizligi past darajada bo‘lsa, jun qoplamasining

kigizlanish darajasi yuqori bo'lgan. Qo'ylar oziqlanish me'yorini buzilganda, oziqa birligi past bo'lgan emishlar bilan boqilganda hamda qo'ylar kasallanganda ularning jun qoplamasida kigizlanish miqdori oshib borgan. Quyidagi jadvalda qo'ylarning semizlik darajasi, ularning jun tolalarining holatiga bog'liqligi ifodalangan (2-jadval).

2-jadval.

**Qo'ylarning holati va ularning jun tolalari ta'siri**

Suruvning tartib raqami	Yillar bo'yicha	Qo'y soni, bosh	Semizlik toifalari bo'yicha kigizlanish holati								
			O'rtadan yuqori			O'rta			O'rtadan past		
			Qo'y soni, bosh	Juni kigizlangan		Qo'y soni, bosh	Juni kigizlangan		Qo'y soni, bosh	Juni kigizlangan	
				soni	%		Soni	%		soni	%
1-suruv	2013	390	10	-	-	206	3	1.4	174	16	9.2
	2014	376	13	-	-	221	2	0,9	142	11	7,7
2-suruv	2013	476	13	1	7,7	237	3	1,0	166	19	11,4
	2014	451	16	-	-	307	3	1,0	128	13	10,0
Jami:			52	1	1,9	1037	11	1,07	610	59	8,2

O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, 1-sonli suruvda 2013 yilning bahorgi qirgimida o'rtadan yuqori semizlikdagi 10 bosh sovliqning biror boshida jun qoplamasining kigizlanish holatlari kuzatilmagan bo'lsa, o'rta semizlikdagi 206 bosh qo'yning, 3 boshi, yoki jami qo'yning 1,40 foizi, o'rtadan past semizlikdagi va oriq 174 bosh qo'yning 16 boshi, yoki jami qo'yning 9,2 foizida kigizlanish belgilari aniqlangan. Jun tolalarining cho'zilishga bo'lgan mustahkamligi ularga ishlov berishda katta ahamiyat kasb etadi. Tolaning bu xususiyatiga asosan qo'yning holatiga, ya'ni yaxshi oziqlantirilgan va yaxshi sharoitda boqilgan qo'ylarning jun tolalari cho'zilishga mustahkamligi yuqori bo'lgan (3-jadval).

3-jadval.

**Jun tolalarining cho'zilish mustahkamligiga qo'y holatining ta'siri (Qorako'l va jaydari qo'y juni, namligi 17%)**

Qo'yning holati	Jun tolasining tabiiy uzunligi, o'rtacha, mm	Tolaning mustahkamligi g.kuch	Ishlov berilgandan so'ng tolaning uzunligi.	
			mm	%
O'rtadan yuqori semizlikdagi qo'ylar	120	21.05±0.30	108	90,0



<p>O‘rtacha semizlikdagi qo‘ylar</p>	<p>110</p>	<p>20.89±0.41</p>	<p>90</p>	<p>81,8</p>
<p>O‘rtadan past bo‘lgan va oriqlik qo‘ylar</p>	<p>70</p>	<p>16.65±0.22</p>	<p>50</p>	<p>71,4</p>

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘rtadan yuqori semizlikdagi qo‘ylarda tolaning cho‘zilishga bo‘lgan mustahkamligi  $21.05 \pm 0.30$  bo‘lgan bo‘lsa, o‘rtadan past va oriqlik qo‘ylarda bu ko‘rsatkich  $16.65 \pm 0.22$  ni tashkil etgan ( $R > 0,999$ ). Buni shunday izohlash mumkin, o‘rtadan yuqori semizlikdagi qo‘ylarda tolalar rivojlanishi bir tekis bo‘lgan. Bu esa tola mustahkamligiga ijobiy ta‘sir etgan. O‘rtadan past bo‘lgan va oriqlik qo‘ylarda tola qalinligi bir tekis bo‘lmagan. Shu sababli cho‘zilishga mustahkamligi past bo‘lgan.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkin: Qo‘ylardan olinayotgan jun teridan ajraladigan yog‘ va ter hisobiga ifloslanadi. Bu jarayon ayniqsa issiq sharoitda ko‘proq kuzatiladi shu sababli respublikamiz sharoitida boqilayotgan barcha qo‘y zotlarida yog‘ va ter bilan ifloslanishi kuzatiladi. Bu jarayon ayniqsa semiz qo‘ylarda ko‘proq kuzatiladi. Junning yog‘-teri ham muayyan texnologik ahamiyatga ega. Butunlay yog‘siz jun tolasi qattiqroq, sinuvchan bo‘lib qoladi, uni qayta ishlash qiyin bo‘ladi va tolalar ko‘p chiqitga chiqadi. Yog‘-ter junning fizik xossalarini tashqi muxitning zararli ta‘sirlaridan saqlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yusupov S.Y, Bozorov S.R. Junga birlamchi ishlov berish texnologiyasi. – Samarqand, 1998. –B.16 –17.
2. Yusupov S.A. Maxalliy jun tolalariga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish: Dis.kan.tex–T: 2004, 194-b.
3. Yusupov S.Y, Axmedov F. O‘zbekistonda qorako‘lchilikning holati va navbatdagi vazifalar // Zooveterinariya. –T: 2011, №8.-B.34-35.
4. Sherov E., Inoyatov A.I. Turli jun konstitutsiya tipidagi qorako‘l qo‘ylarning jun mahsuldorligi // Zooveterinariya, Toshkent, 2014. №11.S.29-30.
5. To‘xtarov R., Xasilbekov A. Junga birlamchi ishlov berishda namlikning jun sifatiga ta‘siri / Ilmiy maqolalar to‘plami.Samarqand 2015. –B.178-180.